

## MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA VATAN MADHINING AKS ETISHI

*Urganch innovatsion universiteti o'qtuvchisi f.f.n.*

*Sharofat Ollaberganova.*

*Urganch innovatsion universiteti 23.01(kunduzgi)guruh talabasi*

*Xabibullayeva Munavvar Ahmadjon qizi.*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada shoir ijodi va uning she'rlarida vatan madhi o'ziga xos uslubda bayon etishi tahlil qilingan.

**Annotation:** This article analyzes the work of the poet and his unique style of describing the national anthem in his poems.

**Аннотация:** В данной статье анализируется творчество поэта и то , как он описывает государственный гимн в своих стихах в уникальном стиле.

**Kalit so'zlar:** Shoir ijodi ,manaviy kamolot ,vatanparvarlik hissi ,she'riyat ,mahorat ,shoirning ona-vatan yo'lidagi fidoiy xizmatlari ,meros ,jamiyat.

**Key words:** Poet's work , spiritual maturity , sense of patriotism , poetry , skill , selfless service of the poet to his motherland , heritage , society.

**Ключевые слова:** творчество поэта , духовная зрелость , чувство патриотизма , поэзия , мастерство , самоотверженное служение поэта своей Родине , наследие , общество.

Biz bilamizki , O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ,avvalo xalq dardini baralla aytgan ,yurt muhabbatini hech kimga o'xshamagan misralarda ta'riflagan.Darhaqiqat ,shoir ijod maydoniga o'zbek do'ppisi bilan kirib keldi.O'tgan asrning so'nggi choragida adabiyotimizning pokiza osmonida yo'lchi yulduzdek porlagan shoir o'zining sodda va samimiyo so'zi ,o'zigagina yarashadigan she'riyati bilan el nazariga tushdi.Zeroki ,vatanini kuylamagan ,madh qilmagan shoir bu dunyoda bo'lmasa kerak.Menimcha Muhammad Yusufgacha ham undan keyin ham qo'liga

qalam tutgan shoir borki ,ona-vatanini ulug'lab sh'rlar yozdi.Muhammad Yusuf oddiy yozar edi.Lekin shu oddiylikda butun bir go'zallik ,she'r jozibasi ,insonlar taqdiri va hayot yo'llari aks etib turar edi.Shoir vatanni qandaydir balandparvoz ,she'rdan she'rga o'tib yuruvchi jimjimador so'zlar bilan emas ,balki ,sodda va mag'zi to'q so'zlar bilan tasvirlaydi. Darhaqiqat , uning she'rlarida vatanni tasavvur qilish oson va huzurlidir ,qaysidir jihat bilan onangizga yoki otangizga o'xshab ketadi. Menimcha , vatan haqida she'r yozgan shoirlarning hech biri hali vatanni onaga ,singilga o'xshatgan emas ,yoki bo'lmasa vatanni tol beshikdan boshlanishini shu ijodkorgina o'z she'rlarida keltirib o'tgan.Shoir she'rlarida vatanni shunchalik oddiy tarannum etadiki ,u har bir qalblarga kirib boradi. Uning "vatanim" she'rida ona yurtiga cheksiz muhabbatini ifoda qilib ,Temurmalik ,Shiroq jasoratini ,Balxda dorga osilgan Mashrab kimligini ko'rsatib beradi.Shoir she'rlarining zaman bilan hamnafasligi shundaki ,u birinchi "O ,Ota makonim"deb she'rlarida murojat qiladi.Yer yuzidagi eng aziz va yaqin insonlarini u onasiga tenglashtiradi.Shoirning she'rlari ,mening nazarimcha ,savol berib ,javob izlatib o'quvchini o'ylanishga majbur qilmaydi ,chunki shoir yuragidagi to'fonlar she'rga aylanib qog'ozda aks etar ,o'quvchining ko'nglini ochib ,dard-u baxtini bo'lishar edi.Muhammad Yusuf tilimizning jonkuyar himoyachisi ,u har bir so'zni vatan deb bilar ,vatanni asrashni milliy tildan boshlash kerakligini she'rlarida ilgari surgan.

Shoirning she'rlari bugungi kunda ham xalqning etiboridan qolmay kelmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki ,Muhammad Yusufning she'rlari insonni qadrlashga ,vatanni sevishga o'rgatadi.Shuning uchun ham biz uning she'rlarini o'rganishdan ,yod olishdan hech charchamaymiz ,toki bashar bor ekan uning she'rlari asosida yaratilgan kuylar yangrayveradi va shu ohanglar qalblarda mangu qoladi.Shoir ijodiga nazar solsak ,she'rlarida insoniyatga aloqador ezgu xislatlar savob amallarning tamomi eng baland pardada kuylanadi.Shuning uchun ham shoirning she'rlari xalqimizning asrlar osha boy merosidan joy olgan.Shu asnoda shoirning she'rlari yoshlarning manaviyatini yuksaltirishda ahamiyatlidir.Darhaqiqat ,shoirning she'rlari ,odamlar unutayozgan qadriyatlarimizni ,millatimizni asrab avaylashga chorlaydi. Shoir

qaysi mavzuda yozmasin undan vatanning nafasi ufurib turadi.Muhammad Yusufning shoirligi vatan nomli buyuk ildizga borib tutashadi.U shoirlikka biror bir martaba yoki mansab sifatida qaramaydi ,balki shoirlikni vatani oldidagi buyuk mas'uliyat deb biladi. Vatan haqida aytilgan birgina olovli so'z qalbni larzaga solishi ,mudroq tuyg'ularni uyg'otishi mumkin.Darhaqiqat ,shoirlar bor ,adiblar bor ona zaminini ota tuproqini shunday yoniq qalb ,yoniq misralar bilan ta'riflaydilar.Ularning yozganlarida ana shunday haroratni tuyasiz.Muhammad Yusuf ana shunday betakror ijodkor edi.U o'tli misralari bilan millionlab qalblarda vatan suratini chiza olgan.Muhammad Yusuf she'rlarining bosh mavzusi vatan mavzusi bo'lib ,u vatanni qanday sevsə ,xuddi shunday boricha yozdi.Qalbdan chiqqan sodda va samimi tuyg'ular xalq qalbidan ham chuqur joy ola bildi.U o'z vataniga bo'lgan sevgisini onasiga bo'lgan sevgisiga qiyos etadi.U vatani haqida shunday fikr bildirar ekan shunday deydi:

“Mening vatanim-mening onam ,dunyoda undan go'zali yo'q ,dunyoda undan ulug'i yo'q”.

Fikrimizning isboti sifatida shoirning quyidagi she'rini keltirishimiz mumkin.

O , ota makonim ,onajon o'lkam

O'zbekiston , jonom to'shay soyangga.

Sendek mehribon yo'q ,

Senengdek ko'rkam ,

Rimni alishmasman bedapoyangga.

Shoirning “Vatanim”she'rida vatanini – onasiga ,singlisiga qiyoslagani ko'rishimiz mumkin.

Shodon kunim gul otgan sen ,

Chechak otgan izimga ,

Nolon kunim yupatgan sen ,

Yuzing bosib yuzimga

Singlim deymi ,onam deymi ,

Hamhard-u hamhonam deymi ,

Oftobdan ham o'zing mehri ,ilig'msan vatanim.

Shoirning bu she'rida vatan timsolini singlisida ,onasida ko'radi.

Ona-buyuklarning eng buyukligi ,ulug'larning eng ulug'i ,suyukli zotlarning eng suyuklisi ,bazan ul zotni tariflashga ojiz qolasan kishi.Ana shunday buyuk zot timolida shoir bu she'rida vatanni ko'radi.

Shoirning "Tanish teraklar" , "Bulbulga bir gapim bor" , "Iltijo" , "Uyqudag'i qiz" , "Ishq kemasi" , "Ko'nglimda bir yor" , "Bevafo ko'p ekan" , "Saylanma" , "Biz baxtli bo'lamiz" , "Ulug'msan vatanim" singari o'ndan ortiq she'riy to'plamlari adabiyotimizning oltin merosiga aylandi.

Muhammad Yusufning hayot yo'li ,ijodi va qizg'in ijtimoiy faoliyati yoshlarimiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf o'zbek she'riyati va qo'shiqchiligin rivojlantirishdagi xizmatlari uchun 1996-yilda "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan.

Muhammad Yusuf 2001-yil 1-avgustda 47-yoshida vafot etdi. Uning milliy adabiyotimiz va madaniyatimizni ,xalqimiz manaviyati ,ongu tafakkurini yuksaltirish ,yosh avlod qalbida o'zlikni anglash ,milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kamol toptirish borasidagi xizmatlarini inobatga olib 2013-yilning 27-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60-yilligini nishonlash to'g'risidagi qarori e'lon qilindi hamda shoirning tavallud ayyomi milliy adabiyotimizning haqiqiy bayrami sifatida tantana qilindi.Darhaqiqat ,shoirning yaratgan asarlari asrlar osha o'z mavqeyi va qadr-qimmati bilan adabiyotimizda ravnaq topib kelmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki ,hamma inson ham vatan ,ona deya kuylashi mumkin ,ammo ona -yurtni maromiga yetkazib ,yurakdan kuylay oladigan ,xalq dilini biladigan ijodkorgina chin shoir bo'la oladi.Menimcha ,Muhammad Yusuf bunga yorqin timsol bo'la oladi deb o'ylayman.Shoir she'rlari orqali odamlarni unutayozgan qadriyatlarimizni ,millatimizni asrab avaylashga chorlaydi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.O'zbek adiblari R.Shokirova.Toshkent g'ofur g'ulom nomidagi nashriyot kitobidan.
- 2.Muhammad Yusuf saylanma 2-jild Toshkent 2006
- 3.Muhammad Yusufni anglash milliy istiqlol mafkurasi.Toshkent 2007.
- 4.Qadriyatlarni asrab avaylashda shoirning milliy mafkurasi.
- 5.Ona yurt fidoyilari M.Behbudiy tanlangan asarlar 2-jild.